

“Talabalar kibersport o‘yinlari Farg‘ona 2025”

JUST DANCE

REGLAMENTI



Farg‘ona – 2025

FIJITAL JUST DANCE O'YINLARINI O'TKAZISH REGLAMENTI

I. Musobaqaning maqsad vazifalari

1.1. Yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish orqali yoshlar o'rtasida jinoyatchilikni oldini olish.

1.2. **JUST DANCE** bo'yicha iqtidorli sportchilarni (seleksiya) tanlab olish.

II. Musobaqani o'tkazish tizimi

2.1. Musobaqa Olimpiya tizimi asosida o'tkaziladi (yutqazgan jamoa musobaqani tark etadi).

2.2. Har bir jamoa 2 (ikki) nafar ishtirokchidan iborat bo'ladi.

2.3. Har bir o'yinda jamoa ishtirokchilari navbat bilan qatnashadi.

2.4. O'yinlar BO3 (Best of 3) formatida o'tkaziladi.

2.5. Ikkita o'yin(Raund)da g'alaba qozongan jamoa keyingi bosqichga o'tadi.

2.6. O'yin natijalari (monitorda aks etgan ballar) rasmga olinishi shart va shu bilan birga video tasvirga yozib olinishi mumkin.

2.7. Baxsli holatlar bo'yicha qaror hakamlar hay'ati tomonidan foto va video materiallar asosida qabul qilinadi.

III. Musobaqa formati va tizimi

3.1 Musobaqa formati:

1-bosqish – Oliy ta'lim muassasalarida

Dastur turi:	Moslik formati:	Format:
JUST DANCE	Bo3	Offline

2- bosqich – Viloyatdagi texnika oliy o'quv yurtlarida

Dastur turi:	Moslik formati:	Format:
JUST DANCE	Bo3	Offline

Final bosqichi- Farg'ona viloyati va Fag'ona davlat texnika universitetida

Dastur turi:	Moslik formati:	Format:
JUST DANCE	Bo3	Offline

IV. Musobaqa ishtirokchilarining huquqlari va majburiyatlari

4.1. Musobaqalarda oliy ta'lim muassasalarida (davlat, xorijiy, xususiy) ta'lim olayotgan talaba - qizlar jamoasi ishtirok etishiga ruxsat etiladi. Jamoa tarkibiga 2 nafar sportchi jalb etiladi.

4.2. Musobaqaning barcha ishtirokchilari halol sheriklik, adolat, hakamlar, tomoshabinlar, raqiblarga hurmat tamoyillariga rioya etishlari, musobaqalarda zo'ravonlik va noqonuniy xatti-harakatlarning oldini olish bo'yicha barcha zarur choralar to'g'risida ogohlantirilgan bo'lishlari kerak.

4.3. Har bir ishtirokchi 2019-yil 29-yanvardagi "O'zbekistonda sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish va aholini jismoniy tarbiya va ommaviy sportga jalb etish to'g'risida"gi VM-65 qarori, 2020-yil 24-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5924 farmoni, shuningdek musobaqalarni o'tkazish bilan bog'liq boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya etishlari lozim.

4.4. Ishtirokchilar, hakamlar va musobaqalarni o'tkazish bilan bog'liq boshqa shaxslarga quyidagilar taqiqlanadi:

- Bukmekerlik idoralarida va interaktiv musobaqalarga mustaqil ravishda hamhamda uchinchi shaxslar (qarindoshlar, do'stlar, tanishlar) orqali pul tikish;

- Musobaqalar natijasiga, shu jumladan oldindan belgilangan natijaga erishish maqsadida, uchun boshqa shaxslar bilan qonunga xilof ravishda muzokaralarga kirishish (shu jumladan niyatlarni ifoda etish, maslahatlar berish)

- Musobaqa ishtirokchilari Just Dance Now video o'yin ishlab chiqaruvchi kompaniyaning lisenziya shartnomasida belgilangan qoidalarga rioya qilish majburiyatini oladilar;

- Musobaqada qatnashish ixtiyoriy, erkin va tanlov ishtirokchisining shaxsiy ma'lumotlari uning tashkilotchisi tomonidan qayta ishlashga roziligini ongli ravishda ifoda etgan holda amalga oshiriladi;

- O'yinchilar barcha o'yinlarda g'alaba qozonish uchun kurashadilar, shuningdek musobaqalar to'liq quvvat bilan o'ynash va sport intizomini saqlash majburiyatini oladilar;

- Musobaqa tashkilotchisi ishtirokchilarning ismlardan, taxalluslaridan, ularning musobaqadagi ishtiroki aks etgan fotosuratlar va videolardan tashkilotchining resurslari va musobaqadagi hamkorlarining resurslari, shuningdek har qanday ommaviy va reklama tadbirlari yoki boshqa manba, aksiyalarga qo'shimcha bildirishnomalarsiz havola qilish va foydalanish huquqiga ega;

- Ishtirokchilar musobaqa qoidalariga rioya qilish majburiyatini oladilar;

- Musobaqa tashkilotchisi ishtirokchining shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlash, kelgusida musobaqalar o'tkazish, shu jumladan ishtirokchi bilan aloqa qilish uchun saqlash huquqiga ega;

4.5. Ishtirokchilar bilan kompensatsiyasiz, rozi bo'lgan holda suhbatlar o'tkazilishi, ommaviy axborot vositalarida, axborot resurslarida (shu jumladan saytlar va ijtimoiy tarmoqlar va boshqalarda) yozib olinishi va ko'rsatilishi mumkin, shuningdek yozib olingan va ko'rsatilgan materiallar axborot/reklama maqsadlarida vaqt va formatidan qat'iy nazar foydalanish mumkin.

4.6 Hududiy bosqichda g'olib bo'lgan jamoalar yagona sport kiyimida ishtirok etishlari shart. Sport kiyimining orqa qismida jamoa vakillik qilayotgan hudud nomi, old qismida esa tegishli oliy ta'lim muassasasining rasmiy logotipi aks etishi lozim. Agar sport kiyimida homiy tashkilot logotipi joylashtirilgan bo'lsa, bu haqda Respublika bosqichi tashkilotchilari oldindan xabardor qilinishi zarur.

V. Hakamlik

Hakamlar tarkibi musobaqaning Bosh hakamlar hay'ati tomonidan belgilanadi va musobaqa tashkilotchisi tomonidan tasdiqlanadi.

VI. Norozilik namoyishlari

6.1. Ishtirokchi, agar quyidagi huquqlari buzilganda norozilik bildirishi mumkin:

- * o'yin hisobini yuritishda yoki o'yin vaqtini hisoblashdagi xatolarni hakamlar tomonidan tuzatilmaganda;

- * o'yinni bekor qilinishi, boshqa muddatga o'tkazilishi, davom ettirish yoki o'tkazilmasligi bilan bog'liq bo'lgan holatlarda, shuningdek o'ynamaslik sababli mag'lubiyatni berish qarori yuzaga kelganda;

- * o'yinda ishtirok etish qoidalari buzilganda.

6.2. Norozilik bildirish tartibi:

6.2.1. O'yin tugaganidan keyin 15 daqiqa ichida (agar o'yin bo'lib o'tgan bo'lsa)

yoki bosh xakam tomonidan mag'lubiyat to'g'risida qaror qabul qilingandan so'ng (o'yinni bekor qilish/ko'chirish/yangilamaslik) norozilik bildirayotgan ishtirokchi musobaqa bosh xakamni norozilik bildirishi niyati to'g'risida xabardor qilishi kerak va bayonnomani "Norozilik bo'lsa, ishtirokchining imzosi" grafasida rasmiy imzolashi kerak.

6.2.2. Norozilikni tasdiqlash uchun norozilik bildirgan ishtirokchi o'yin tugaganidan keyin bir soat ichida yozma ravishda shikoyat qilingan harakat yoki

o'yin lahzasini sababini ko'rsatgan holda norozilik bildirishnomasini taqdim etishi kerak.

6.2.3. O'z vaqtida ko'rib chiqish uchun taqdim etilmaganlar va o'yinning rasmiy bayonnomasida qayd etilmagan noroziliklari qabul qilinmaydi;

Musobaqaning barcha o'yinlari uchun norozilik bo'yicha birinchi va oxirgi instansiya qarorini musobaqaning bosh hakami qabul qiladi.

6.2.4. Qaror yakuniy hisoblanadi va qayta ko'rib chiqilmaydi.

6.3. Musobaqa ishtirokchisining talabiga binoan bosh hakam yakuniy qarorini qabul qilishdan oldin uning fikrini tinglashi lozim.

Musobaqa ishtirokchisining ma'lumotlari ushbu o'yin texnik buyurtmanomaga kiritilishi kerak;

6.4. Musobaqaning bosh hakami iloji boricha tezlikda qaror qabul qilishi kerak, lekin protest qilingan o'yin jamoalaridan biri ishtirok etadigan keyingi tasdiqlangan o'yinni boshlanish vaqtdan ikki soat oldin bo'lishi lozim. U bu qaror haqida ishtirokchilarga darhol xabar berishi kerak;

6.5. Agar o'yin natijasi haqiqiy emas deb e'lon qilinsa, o'yin ertasi kuni qayta o'tkazilishi kerak;

6.6. Agar o'yin natijasi haqiqiy emas deb e'lon qilinsa va o'yinni ertasi kuni takrorlash mumkin bo'lmasa, qayta o'ynash sanasi to'g'risida qarorni musobaqa tashkilotchisi qabul qiladi;

6.7. Mazkur Nizom va Just Dance video o'yinining amaldagi rasmiy qoidalari bo'yicha qonunbuzarliklar bilan bog'liq har qanday norozilik, musobaqa ishtirokchilari tomonidan yozma ravishda Bosh xakamning rasmiy elektron pochtasiga o'yin tugaganidan keyin bir soatdan kechiktirmay norozilik bildirish tartibiga rioya qilgan holda taqdim etilishi kerak;

6.8. Norozilik mazmunida uni taqdim etish uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi sabablar ko'rsatilishi, shuningdek ushbu Reglament bandlarining buzilishi bilan bog'liq holatlar batafsil bayon etilgan bo'lishi kerak;

6.9. Norozilik bildirgan shaxslar ishonchlilik va undagi ma'lumotlarning ob'yektivligi uchun javobgardir. Agar norozilik bildirishnomasida bila turib yolg'on yoki noto'g'ri ma'lumotlar mavjud bo'lsa, musobaqa bosh hakami jamoaga intizomiy jazolar va / yoki jarimalar qo'llash to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin.

6.10. Faqat o'yin bayonnomasida to'g'ri qayd etilgan jamoalar noroziligi vakolatli shaxslar/organlar tomonidan ko'rib chiqish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin;

JUST DANCE NOW dasturini ishga tushirish yo'riqnomasi

1. Google Play orqali mobil qurilmangizga Just Dance Now dasturini yuklab olib, o'rnatish.
2. Avvalo, <https://justdancenow.com> saytiga o'yinni "Premium akkaunt"ga ega bo'lgan tashkilotchi kiradi va musobaqa uchun "Tantsevalnaya komnata" (raqs xonasi) yaratadi.
3. Musobaqa ishtirokchilari ushbu "Tantsevalnaya komnata"ga maxsus kod yoki QR-kod orqali kirishadi.
4. Just Dance Now dasturiga kirib ishtirokchi NICK-nomi uchun o'z F.I.Sh foydalanishi kerak.
5. Tashkil qiluvchi tomonidan Treklar tanlab beriladi.
6. Ishtirokchilar smartfonlarini qo'lida ushlab, ekrandagi raqs harakatlarini takrorlashadi. Qaysi qo'lida ushlab turishi smartfonda ko'rsatiladi.
7. Harakatlarga muvofiq ballar yig'iladi va tashkilotchilar tomonidan qayd etib boriladi. (Ballarni rasmga olish kerak)
8. Tashkilotchi tomonidan tanlab olingan 3 ta trek (Bo3 formati) natijasiga ko'ra 2 ta o'yinda g'alaba qozongan jamoa g'olib deb topiladi.

TREKLAR RO'YXATI (1- bosqich va 2- bosqichlar uchun) – smartfonlar bilan:

Saralash: 3 ta Trek tanlab olinadi. Treklar qiyinlik darajasiga qarab 1 tadan.

1-daraja:

Domino - Jessie J

Smile - IOWA

Lush Life - Zara Larsson

Lights - Ellie Goulding

Love You Like A Love Song - Selena Gomez and The Scene

2-daraja

Cheap Thrills - Sea ft. Sean Paul

Dance Monkey - Tones And I

Chandelier - Sia

Hey Ya! - Outkast

good 4 u - Olivia Rodrigo

3-daraja

Bring Me to Life - Evanescence

Rather Be - Clean Bandit ft. Jess Glynne

Stupid Love - Lady Gaga

Treklar ro'yxati (Final bosqichi uchun) - Nintendo Switch uyin konsoli bilan:

1 Tur: - STAY – The Kid LAROI & Justin Biyeber – As It Was – Harry Styles

2 Tur: - Psycho – Red Velvet(solo) – Physical – Dua Lipa

¼ Final: - Magic – Kyliye Minoguye – I Knew You Wyere Trouble – Taylor Swift – More – K/DA Ft. Madison Beyer, (G)-IDLE, Lexiye Liu, Jaira Burns & Seraphine(solo) – Danger! High Voltage – Electric Six(solo)

½ Final: - Good Ones – Charli XCX – Disco Inferno – The Trammmps – Dynamite – BTS(solo) (1:1xisobida)

3 o'rin uchun: - Numb – Linkin Park – Love Me Land – Zara Larsson – Rather Be – Clean Bandit ft. Jess Glynne (1:1xisobida)

Final: - Physical (Extreme version) – Dua Lipa – Boy With Luv (Extreme version) – BTS ft. Halsey – Toxic (Extreme version) – Britney Spears (1:1 xisobida)

Treklar tanlanma asosida ichki imkoniyatdan kelib chikib, o'zgarishi mumkin.

“TASDIQLAYMAN”

_____OTM rektori

“_____” _____2025 y

Fijital sport o‘yinlari sport musobaqalarida ishtirok etish uchun

T A L A B N O M A

Sport turi _____

_____ jamoasi

<i>N^o</i>	Ishtirokchi F.I.Sh.	Tugilgan sana	Nikneym /Akkaunt	Amplua/ pozitsiya	Telefon	Rasm	Vrach qaydi (imzo, muhr)
<i>1</i>							
<i>2</i>							
<i>3</i>							
<i>4</i>							
<i>5</i>							
<i>6</i>							
<i>7</i>							

Ruxsat etildi: _____ nafar

Vrach _____ / _____
(imzo) (F.I.Sh.)

Muxr

Trener _____ / _____
(imzo) (F.I.Sh.)

Jamoaraxbari F.I.Sh. va telefon raqami:

«____» _____2025y.